

## O‘ZBEK MULTIPLIKATSIYASIDA JAXON ADABIYOTI TALQINI

**Jumaboyeva Feruza**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti  
Multifilm va kompyuter multiplikatsiyasi magistratura mutaxassisligi  
1-kurs magistranti

**Annotasiya:** Ushbu maqolada o‘zbek multiplikatsiyasida jaxon adabiyoti talqini, uning malakali mutaxassislari ijodiy ishlaridan namunalar tahlil qilindi. Mavzuni ochib berishga harakat qilindi. Shuning uchun ushbu maqolada o‘zbek multiplikatsiyasida jahon adabiyotiga murojaat qilinishining mazkur sohada erishilishi mumkin bo‘lgan natijalar haqidagi ma’lumotlar keng va atroflicha yoritilishiga harakat qilindi.

**Kalit so‘zlar:** multiplikatsiya, multiplikator, animatsiya, syujet, milliy mumtoz asarlari, jaxon adabiyoti durdonasi.

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В УЗБЕКСКОЙ МУЛЬТИПЛИКАЦИИ

**Аннотация:** В данной статье анализируется интерпретация мировой литературы в узбекской мультипликации, образцы творческой работы ее квалифицированных специалистов. Попытались раскрыть тему. Поэтому в данной статье была сделана попытка широко и всесторонне осветить информацию о возможных результатах обращения к мировой литературе в узбекской мультипликации в данной области.

**Ключевые слова:** мультипликация, мультипликатор, анимация, сюжет, национальная классика, шедевр мировой литературы.

## INTERPRETATION OF WORLD LITERATURE IN UZBEK ANIMATION

**Annotation:** *This article analyzes the interpretation of world literature in Uzbek animation, samples of the creative work of its qualified specialists. We tried to open the topic. Therefore, in this article, an attempt has been made to broadly and comprehensively highlight information about the possible results of turning to world literature in Uzbek animation in this area.*

**Keywords:** *animation, animator, animation, plot, national classics, masterpiece of world literature.*

O‘zbek multiplikatsiyasi vujudga kelmishki, doim milliy asarlar yoki milliy obrazlar, milliy qahramonlar asosida ishlangan animatsiyalarni tomosha qilib kelamiz. Yurtimizda mutaxassislar tomonidan asosan milliylikimizga urg‘u beradigan multfilmlar yaratiladi. Masalan, rejissyor va rassom Mavzur Mahmudovning buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni asosida “Bahrom va Dilorom” (1996), “Farhod va Shirin” (2010), “Hayrat ul abror” dostoni asosida “Sher ila durroj” (2010) multfilmlari<sup>1</sup>, qisqa metrajli kinofilmlari bilan tanilgan Shokir Xoliqovning o‘zbek multiplikatsiyasi tarixida ilk bor moybo‘yoq uslubida ishlangan “Qiz va bulut” animatsion filmi, 2019-yili “Multiplikatsion filmlar studiyasi” davlat unitar korxonasi (hozir yopilib ketgan) tomonidan 10 ta multfilm “Charxpalak”, “Mening go‘zal yashil rangim”, “Sehrli tanbur”, “Par yostiq”, “Qo‘zichoq, nay va qaroqchilar”, “Samarqand noni”, “Zag‘cha”, “Charxpalak-2”, “Qaldirg‘och bilan mayna”, “Kenja botir”, “Sayyoh” 3D kabi multfilmlar yaratildi.

Lekin o‘zbek multfilmlari deganda boy va kambag‘al, Zumrad va Qimmat sarguzashtlari, laqma va ayyor, yaxshi va yomon kishilar atrofida kechadigan voqealarni tasavvur qilamiz.

Bu qoliplardan chiqish maqsadida malakali mutaxassis rassom multiplikatorlar tomonidan jaxon adabiyoti hamda ertaklariga ham murojaat etilgan. Bunga rejissyor

---

<sup>1</sup> Nigora Xaydarova “O‘zbek animasiya san’ati” Jaxon adabiyoti jurnali 2019/6

Qamara Kamolova tomonidan rumin yozuvchisi Popesku hikoyasi asosida yaratigan “Quyosh yog‘dusi” va turkman xalq ertagi asosida “Kichkina demang bizni” kartinalari, rejissyor N.To‘laxo‘jaev va rassom S.Alibekovning amerikalik fantast yozuvchi Rey Bredberining hikoyasi asosida 1984 yil yaratilgan “Yoqimli yomg‘ir yog‘adi” asari, rassom va rejissyor Mavzur Maxmudovning angliyalik yozuvchi Oskar Uayldning “Baxtli shahzoda” nomli hikoyasi asosida yaratgan multfilmi, uning rassom M.Qoraboev bilan 1999 yildagi G.X.Andersenning “Bulbul” ertagi asosida ishlangan asarlarini misol tariqasida ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

Jumladan, D.Salimov va Y.Petrov hamkorligida yaratilgan “Sehri sandiq” qo‘g‘irchoq filmidagi Zumrad va Qimmat, mahoratli ijodkor M.Mahmudovning ilk perekladka filmi qahramoni “Xo‘ja Nasridin”, fantaziyaga boy iqtidorli ijodkor S.Alibekovning chizma usulda yaratgan “Uzviylik” kartinasi bosh qahramoni va ijodkor D.Vlasovning zamonaviy texnologiyada yaratgan “Bor baraka” multfilmi qahramoni bo‘lgan keksa inson obrazi millatimizga xos xarakterda talqin etilgan. Bu asarlar dunyo miqyosida tan olinib ko‘plab xorijiy tanlovlarda munosib taqdirlangan.

“Jahon adabiyoti namunalarini milliy mumtoz asarlarimiz kabi animasiya ekranda talqin etish o‘sib kelayotgan yosh avlodning tafakkur doirasini kengayishiga va dunyoqarashini yanada boyitishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda o‘zbek multiplikasiya san‘atida milliy animasion filmlar yaratish tendensiyasi boshlanib, asosan, xalq ertaklari va bolalar adabiyotining milliy namunalarini ekranlashtirishga e‘tibor qaratilmoqda.

Multfilmlar ishlab chiqaruvchi xorijiy yirik kinokompaniyalarning ijodiy tajribasiga e‘tibor qaratsak, ularning asosiy muvaffaqiyat siri dunyo bolalar adabiyotining eng yaxshi namunalariga tayanganligidadir. Jahon adabiyoti namunolari va dunyo xalqlari ertaklaridan unumli foydalanish milliy multiplikasiya sohasini har jihatdan rivojlantirishning muhim omili bo‘lib qolaveradi”.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Nigora Xaydarova “O‘zbek animasiya san‘ati” Jaxon adabiyoti jurnali 2019/6

Men ham ilmiy tadqiqot ishim uchun jaxon adabiyoti durdonasi bo‘lmish Jeyn Ostinning “Andisha va g‘urur” asarini tanladim. Ushbu asar asosida animatsiya kartinasini, bunday jiddiy klassik asar qahramonlarining multiplikatsion obrazlarini yaratish uni soddalashtirilgan hollarda ham kattalar, ham bolalar uchun multfilm korinishiga keltirishni o‘z oldimga maqsad qilib oldim. Multfilm ishlash jarayonida turli xil qahramonlar obrazini yaratishda rassomdan kuchli mahorat talab qilinadi. Obraz yaratishda har bir rassom-multiplikator eng avvalo kuchli ijodiy qobiliyatga ega bo‘lishi lozim. Ijodiy yondashib yaratilgan multfilmlar o‘zining ulkan ta’sir kuchiga ega. Yaratilayotgan multfilmlar yosh tomoshabinlar uchun zerikarli bo‘lib qolmasligi kerak. Shu jihatdan multiplikatsiya uchun yaratiladigan multfilm ssenariysida syujet ritmga va qahramonlar dinamikaga boy bo‘lishi kerak. Shu bilan birga multiplikatsion asarda ko‘proq ijobiy qahramon orqali tomoshabinni ezgu g‘oyalarga yetaklashga va buzg‘unchi g‘oyalardan yiroqlashishga harakat qilinadi. Bu maqsadga erishish uchun ko‘plab o‘zbek va jahon adabiyotiga murojaat qilgan animator rassomlar ishlari tahlil qilinib o‘rganib chiqildi. Ilmiy tadqiqot ishimni bajarish jarayonida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lindi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston multiplikatsiya san’atida o‘z tomoshabinlariga erishish uchun nafaqat milliy adabiyotlar balki, jaxon adabiyotlariga ham murojaat qilishimiz kerakligi faqat va faqat ijobiy natijalarga erishishimizni kafolatlaydi deb xisoblayman.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Akbarov H. Adabiyot va kino. -T.: Fan, 1981.
2. Akbarov H. Kino-telerejessura montaj. “Garmoniya”. Uch qismli television musiqali hujjatli film ssenariysi. – T.: Ilm ziyo, 2007.
3. Haydarova N. T. O‘zbekiston animatsion filmlari davriy katalogi. T.: Turoniqbol. 2019.
4. Haydarova N. T. “O‘zbek animasiya san’ati” Jaxon adabiyoti jurnali 2019/6
5. Azizbek Jabbarovich Jabbarov O‘zbek multiplikatsiyasida milliy qahramonlarni va qadryatlarimizni tahg‘ib etuvchi personajlarni yaratish, ularni bola tarbiyasidagi ahamiyati. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal. 2023 y.